

Qatar Davlati Amiri davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 5-6-iyun kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Oliy martabali mehmon tashrifining asosiy tadbirlari Samarqand shahrida bo'lib o'tadi.

Bo'lajak oliy darajadagi muzokarlarda O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Bunda, eng avvalo, faol siyosiy muloqotlar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish, energetika, gaz-kimyoo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish e'tibor markazida bo'ladi.

Davlat rahbarlari xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalarini ham muhokama qiladilar.

Uchrashuv yakunida salmoqli hukumatlararo va idoralararo hujjatlar to'plami imzolanishi kutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Qatar Davlati Amirining yurtimizga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning 25 yildan ziyod tarixida birinchisi bo'ladi.

Manba